



## BUTUNJAHON TURIZM TASHKILOTI O'ZBEKISTONDAGI O'RNI

Tairova Dilnoza Gayratovna

Toshkent Turizm Va Mehmonxona Menejmenti

Texnikumi maxsus fan o'qituvchisi

### **Annotatsiya:**

Butunjahon Turizm Tashkiloti turizm sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, barqaror turizmni qo'llab-quvvatlash va turizmni iqtisodiy o'sish manbai sifatida tanitish maqsadida tashkil etilgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan agentligidir. O'zbekiston, o'zining boy madaniyati, tarixiy obidalari va tabiiy go'zalliklari bilan, Butunjahon Turizm Tashkilotining faol a'zosi sifatida turizm sohasida o'z o'rmini mustahkamoqda. Ushbu maqolada Butunjahon turizm tashkilotining O'zbekistondagi o'rni haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** turizm, xalqaro tashkilotlar, sayyoohlar assosiatsiyasi, barqaror rivojlanish, xalqaro hamkorlik.

### **Аннотация:**

Всемирная туристская организация – специализированное учреждение ООН, созданное с целью развития международного сотрудничества в сфере туризма, поддержки устойчивого туризма и продвижения туризма как источника экономического роста. Узбекистан с его богатой культурой, историческими памятниками и природными красотами укрепляет свои позиции в сфере туризма в качестве активного члена Всемирной туристской организации. В данной статье представлена информация о роли Всемирной туристской организации в Узбекистане.

**Ключевые слова:** туризм, международные организации, туристские ассоциации, устойчивое развитие, международное сотрудничество.

### **Abstract:**

The World Tourism Organization is a specialized agency of the United Nations established to develop international cooperation in the field of tourism, support



sustainable tourism and promote tourism as a source of economic growth. Uzbekistan, with its rich culture, historical monuments and natural beauty, is strengthening its position in the field of tourism as an active member of the World Tourism Organization. This article provides information about the role of the World Tourism Organization in Uzbekistan.

**Keywords:** tourism, international organizations, tourist association, sustainable development, international cooperation.

## KIRISH

Butunjahon turizm tashkiloti BMTning xalqaro sayyohlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha jahondagi yagona xalqaro tashkilotdir. Mazkur tashkilot dastlab 1925 yilda Xalqaro sayyohlar assosiatsiyasi sifatida tashkil topgan. Shundan so'ng, 1974 yilda uning nomi Butunjahon turizm tashkiloti deb o'zgartiriladi. 2003 yilda tashkilot BMTning ixtisoslashgan muassasasi maqomiga ega bo'ldi. 2023 yil holatiga ko'ra Butunjahon turizm tashkilotiga 159 mamlakat a'zo bo'lib kirgan. Shuningdek, tashkilot 158 ta ishtirokchi davlatni, 6 ta assosiatsiyalashgan mintaqani, kuzatuvchi maqomiga ega bo'lgan ikkita mintaqani va 500 dan ortiq bo'linmali tashkilotlarni birlashtiradi. O'zbekiston Butunjahon turizm tashkilotiga 1993 yilda a'zo bo'ldi. 2004 yilda Samarqand shahrida tashkilotning Buyuk Ipak yo'lida sayyohlikni rivojlantirishni muvofiqlashtirish bo'yicha mintaqaviy ofisi tashkil etildi.

## ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI.

O'zbekiston, Markaziy Osiyoda joylashgan bo'lib, o'zining tarixiy shaharlar, qadimiy obidalar va madaniy merosi bilan mashhurdir. Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent kabi shaharlar, UNESCOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan obidalar bilan boyitilgan. Bu shaharlar, nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki turizm sohasida ham katta salohiyatga ega. Butunjahon Turizm Tashkiloti O'zbekistonning turizm sohasini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. [1]

Tashkilot, O'zbekistonning turizm strategiyalarini ishlab chiqishda, xalqaro tajribalarni o'rganishda va turizm infratuzilmasini yaxshilashda yordam beradi. Butunjahon Turizm Tashkilotining qo'llab-quvvatlashi bilan O'zbekiston, turizmni barqaror rivojlantirish va ekologik toza turizmni rag'batlantirishga qaratilgan

loyihalarni amalga oshirmoqda. O'zbekiston Butunjahon Turizm Tashkiloti bilan bir qator loyihalarda hamkorlik qilmoqda. Masalan, O'zbekistonning turizm salohiyatini oshirish maqsadida, Butunjahon Turizm Tashkiloti tomonidan turizmni rivojlantirish bo'yicha seminarlar, treninglar va konferensiyalar o'tkazilmoqda. Bu tadbirlar, o'zbekistonlik mutaxassislarga xalqaro tajribalarni o'rganish va o'z bilimlarini oshirish imkonini beradi. Butunjahon Turizm Tashkiloti barqaror turizmni rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi. O'zbekiston, o'zining tabiiy resurslarini va madaniy merosini saqlab qolish maqsadida, barqaror turizmni qo'llab-quvvatlaydi. Bu nafaqat turizm sohasida, balki iqtisodiyotning boshqa sohalarida ham ijobiyligi ta'sir ko'rsatadi.[2]

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

So'ngi yillarda O'zbekistonda turizm sanoatini rivojlantirish masalalarida yangi tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, turizm sohasida "ochiq eshiklar" tamoyilining joriy etilishi, xorijiy sayyoohlар uchun viza tartibining soddalashtirilishi, xususan, 55 ta davlat fuqarolari uchun soddalashtirilgan elektron viza tartibi, deyarli yuzga yaqin davlatlar fuqarolari uchun O'zbekistonga vizasiz kirish tizimining joriy etilishi, sayyoqlik biznesining barcha turlari uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratish, sohaga xorijiy investorlarni jalb qilish, soliq va bojxona imtiyozlarini yengillashtirish masalalari bu borada ulkan qadamlar bo'ldi. Butun dunyoda xavfsiz sayohat eng muhim masalalardan biridir.[3]

Bu borada xorijyi va mahalliy sayyoohlар xavfsizligini ta'minlash maqsadida O'zbekistonda 2017 yildan boshlab turizm polisiyasi tashkil etildi. 2023 yil 16-17 okyatbr kunlari O'zbekiston tarixida ilk marotaba Samarqand shahrida Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh Assambleyasining yubiley 25-sessiyasi bo'lib o'tdi. Ushbu nufuzli anjumanda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so'zlab, bir qator muhim va dolzarb tashabbuslarni ilgari surdi. Xususan, Prezidentimiz hozirgi murakkab vaziyatni inobatga olgan holda, xalqaro turizm sohasida mustahkam huquqiy asoslarni kuchaytirish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida Global xavfsiz turizm kodeksini ishlab chiqish tashabbusi o'z vaqtida ilgari surilgan taklif sifatida soha mutaxassislari tomonidan yuksak e'tirof etildi. [4]





## XULOSA

Butunjahon Turizm Tashkiloti O'zbekistonning turizm sohasida muhim o'rincini tutadi. Tashkilotning qo'llab-quvvatlashi bilan O'zbekiston, o'zining boy madaniyati va tarixiy merosini saqlab qolish bilan birga, turizmni barqaror rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarni amalga oshirmoqda. O'zbekistonning Butunjahon Turizm Tashkiloti bilan hamkorligi, mamlakatning turizm salohiyatini oshirish va xalqaro maydonda tanitish uchun muhim ahamiyatga ega.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Abdurahmonov K.X. Turizmni boshqarish. Qo'llanma. -T.: nomidagi REU Oliy kasbiy ta'lif federal davlat byudjeti ta'lif muassasasi filiali. G.V. Plexanov Toshkentda, 2013
2. A'zamov S., Toshmuratov T. Xalqaro turizmni boshqarish T.: Toshkent Davlat universiteti, 1996 y.
3. Adilova Z.D, Sodiqov T. Xalqaro turizm biznesi. O'quv qo'llanma. -T.: TDIU, 2010 yil.
4. Adilova Z.D, Allyeva M.T., Norchayev A. Turizm menejmenti. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2011.
5. Aliyeva M.T., Umarjonov A. Turistik mamlakatlar iqtisodiyoti. -T.. Moliya, 2005.